



# “YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

## ERTAKLARNI O’RGATISH ORQALI TA’LIM-TARBIYANING ENG MUHIM QIRRALARINI SINGDIRISH

**Begmatova Dilnoza Muxtarovna<sup>1</sup> Sherqulova Zubayda Uktamovna<sup>2</sup>**

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)<sup>1</sup>*

*SamDU Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (mактабгача та'лим)*

*magistratura mutaxassisligi 2-bosqich magistranti<sup>2</sup>*

### INFO:

Qabul qilindi: 06.03.2022

Ko'rib chiqildi: 08.03.2022

Chop etildi: 09.03.2022

### ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga ertaklardan foydalanishning ahamiyati va uning bolalar tarbiyasida tutgan o'rni masalalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ertak, odob-axloq,  
bolalar, ta'lif-tarbiya,  
dunyoqarash, oila tarbiyasi.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgoylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik ruhidagi tarbiyalab kelgan. Ertaklarni ko'p eshitgan, o'qigan bolalarning dunyoqarashi keng, axloq normalari shakllangan bo'ladi. Chunki ertaklar bolaga ma'naviy ozuqa berib qolmay, uni kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishida yo'lchi yo'ldosh, ekanligi masalalari yoritilgan.

Yosh avlod tarbiyasi, ularning kamoloti davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har doimo yuksak minbarlardan alohida e'tibor qaratib kelmoqda. “Biz ta'lif va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar:

**“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”[1].**

Xalqimizda “Ertaklar -yaxshilikka yetaklar”- deb bejiz aytilmagan. Ertaklar asosida biz bolalarning so‘z boyligini oshirishga, ifodali nutqqa ega bo‘lish, o‘z nutqini mustaqil bayon eta olish, hikoya qilishga o‘rgatish kabi qator ishlarni amalga oshirish uchun zamin yaratamiz. Ota-bobolarimiz bizga qoldirgan buyuk meros yani:.....Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda .....Degan so‘zlarni eshitishi,yoki ko‘rishi bilan aqlini tanigan yosh boladan tortib kattalargacha jim bo‘lishib qulq solishadi. Bu so‘zlearning sehri o‘zgacha. Bir bor ekan,bir yo‘q ekan. Och ekanda to‘q ekan. Aslida buvimdayin Ertak kitob yo‘q ekan Bobo-momolarimiz tomonidan aytilgan ertaklar azal-azaldan xalqni odobli, mehnatsevar to‘g‘riso‘z, halol, rostgo‘y, kamtar, insofli, diyonatl, o‘z tug‘ishganlariga, qarindosh – urug‘lari va yaqin do‘st-birodarlariga qaynoq mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi.

Ertak, ehtimol, bugungi zamonaviy dunyoda o‘zining samimiyligi va iliqliagini yo‘qotmagan yagona yaxshi narsadir. Buvining ertaklari va boboning sevimli nevaralariga kechasi ayтиb bergen ertaklaridan yaxshiroq nima bo‘lishi mumkin?

Shu jihatni bilishimiz mumkinki, maktabgacha tarbiya mussasalari tarbiyalanuvchularida odatda fantastik ertaklarga qiziqish kuchli bo‘ladi. Shu sababli ular ertakni sevib o‘qiydilar. O‘quvchilar ertaklarga nihoyatda qiziqadilar. Negaki ertakda ishtirot etuvchi obrazlar kitob-xonni hayratda qoldiradigan darajada turli voqealarni boshdan kechiradilar.

Odatda 3-4 yashar bola shunchaki passiv tinglovchi emas, balki ertak syujetining bevosita ishtirokchisi bo‘lsa, ertakdan ko‘proq narsani o‘rganadi. U ajoyib yo’llar bo‘ylab sayohat qilishi, ajoyib sarguzashtlar va o‘zgarishlarni boshdan kechirishi, ajoyib mavjudotlar bilan uchrashishi mumkin. Ertakga kirib, bola "ertak qonunlari" ni - ota-onalar tomonidan ba’zan bolalarga singdirish qiyin bo‘lgan xatti-harakatlar normalari va qoidalarini osongina idrok etadi.

Ko‘philik ota-onalar bola tarbiyasini “bolani boqish” deb tushunadi. Ya’ni ular tafakkurida ota-onalar bo‘lish – bolani oziq-ovqat bilan ta’minlovchi, uni boquvchi, uning moddiy ehtiyojlarni ta’minlovchi, uni saranjomlovchi, uni muhofaza qiluvchidir. Bu o‘rinda “tabiiy ehtiyojlarni qondirish” jarayoni mavjud, ammo “tarbiya jarayoni”, ya’ni bolaning “intellektual, ma’naviy va ruhiy-psixologik ehtiyojlarni qondirish” jarayoni mavjud emas. Mazkur holat bugungi kunda ota-onalar zimmasiga juda mas’uliyatli vazifalardan biri – oilada — “pedagog” bo‘lish vazifasini yuklaydi. Biroq ota-onalarning o‘zlarini mazkur vazifani uning bor mavjud ma’no qirralari majmuasida to‘liq tasavvur etmaydilar va chuqur anglamaydilar [2].

Xalqimiz har bir davda qanday qilib yosh avlodni tarbiya qilmoq lozim, qanday qilib ularga axloqiy normalarni sngdirish mumkin, farzandlarni qanday qilib sog‘lom, tafakkurli va baxtli qilib voyaga yetkazish mumkin degan savollarga o‘z javoblarini izlab, ularni avloddan avlodga odat, rusum, qadriyat sifatida yetkazib kelganlar.

Qaysiki, ona allasi bilan Vatanga, onaga muhabbat uyg‘onsa, ertaklar orqali bola fazilat va

illatlarni farqlashni o‘rganadi. Kerak bo‘lsa, tahlilni, tanqidni, taqlidni o‘rganadi. Ertak orqali bolaning fikrlash doirasi kengayadi. Ezgulik hamisha yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishini anglab yetadi. Insonning salbiy hamda ijobiy jihatlarini ajratadi.

Shunday ekan, bizning yondashuvimizda yosh bolalarga ertaklarni o‘rgatish orqali bolalar dunyoqarashini yuksaltirishda -vitagen yodashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Vitagen yondashuv elementlari sifatia - shaxsiy qobiliyatları, hayotiy tajriba, voqelikni real baholashga o‘rgatish orqali yoshlarni kasbni ongli tanlash, kasbiy qiziqish va ehtiyojlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.[3]

Xulosa qilib aytganda, shirindan-shakar bolajonlarimizga buvijonlarimiz, onajonlarimiz erinmay ertaklar aytib bersalar, ular ma’nan barkamol, axloqan yetuk, mulohazali insonlar bo‘lib ulg‘ayadilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // <https://president.uz/oz/lists/view/108>
2. Бегматова Д.М. Ўзбек оиласарида ёшларнинг касбий ижтимоийлашуви. Монография. - Самарқанд: СамДЧТИ, 2020. –
3. Бегматова Д.М. Оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашнинг педагогик шарт-шароитлари. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. - Самарқандб СамДЧТИ нашр-матбаа маркази. – 2019. Б.8.
4. Sherqulova Z.U. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini dunyoqarashini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish // UzACADEMIA ilmiy-uslubiy jurnali, Vol 1, Issue 10, Feburary 2021. Part – 1. – В.95-97.
5. Шеркулова З.У. Использование сказок в формировании мировоззрения детей // "Мировая наука" международное электронное научно-практическое периодическое издание. -2020.- №1(46). - С.240-243.
6. Ҳаққулов Н.Қ. Сиддиқий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи // НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ. -2020. - №10. –Б.296-302.
7. Haqqulov N.Q. Perfect generation - personality of private education and humanity facilities // "МИРОВАЯ НАУКА" международное электронное научно-практическое периодическое издание. -2019. - №2(23). - С.62-63